

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA ARAB TILI FRAZEOLOGIZMLARINING O'RGANILISHI

Mustafoyeva Gulshona,

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrası

Lingvistika yo'nalishi 2-kurs magistranti.

Ilmiy rahbar: Kazakbayev Akbar

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kalit so'zlar. Arab tili frazeologizmlari, tilshunoslik, frazeologik birliklar, dunyoviy tadqiqotlar, semantika va struktur tahlil, tarjima nazariyasi, frazeologik uyg'unlik, madaniy kontekst.

Annotatsiya. Ushbu maqola arab tili frazeologizmlarining dunyo tilshunosligida o'rganilishi va tahlil qilinishi masalalariga bag'ishlangan. Arab tili frazeologizmlari o'ziga xos semantik va struktur xususiyatlarga ega bo'lib, ularning tahlili xalqaro tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda frazeologik birliklarning lingvistik tabiatini, ularning madaniy va ijtimoiy kontekstdagi o'rnini o'rganish usullari ko'rib chiqiladi.

Frazeologiya bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari rivojiga ko'plab tilshunoslar o'zlarining munosib hissalarini qo'shishgan. Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir qismi bo'lib shakllanganiga hali ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, uning kelib chiqish tarixi til taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib tarqaladi. Ilmiy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, frazeologik birliklar til bilan paydo bo'lib, til bilan birgalikda rivojlanib kelgan. Ammo jamiyatning turli davrlarida ularning o'rnini va ahamiyati turlicha baholanadi. Frazeologiya tilshunoslikda mustaqil fan

sifatida yaqinda paydo bo'lgan. Uning shakllanishi taniqli tilshunoslar nomi bilan uzviy bog'liqdir. Shuni aytish joizki, frazeologiya sohasidagi dolzarb muammolarni yoritishda V.V.Vinogradov, N.N.Amosova, A.V.Kunin o'zlarining bebaho hissalarini qo'shgan va shu sababli yangi izlanishlarga keng yo'l ochib berishgan¹.

Frazeologiya alohida fan sifatida shakllanishiga qadar u leksikologiyaning tarkibi sifatida qaralgan. Frazeologiya muammolariga qiziqish dastlab rus tilshunoslari qiziq boshlagan bo'lsada, u alohida termin sifatida ilk bor g'arb tilshunosi Sh.Balli tomonidan qo'llanilgan. U o'zining "Stilistikadan ocherklar" va "Fransuz tili stilistikasi" asarlarida so'z birikmalariga yaxlit bir tizim sifatida qarab, ularning grammatik va leksik xususiyatlari, sintaktik strukturasi va atash ma'nolarining o'ziga xosligidan kelib chiqadigan, yaxlit qo'llanila oladigan birlik ekanligini isbotlashga harakat qildi².

Frazeologik birliklar mavjud bo'lmagan birorta til ham yo'q. Ingliz va amerika tilshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ingliz tili frazeologiyasida nisbatan kam foizni tashkil qilib, asosiy frazeologik muammolar va so'zlarning o'zaro munosabati, frazeologik birliklar variantdoshligi, frazeologiyani o'rganish metodlari, frazeologiyaning fan sifatida rivojlanishi kabi nazariy muammolar asosan rus tilshunoslari A.V.Kunin, V.V.Vinogradov, N.M.Shanskiy, T.N.Fedulonkovalar tomonidan ishlab chiqilgan³.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida XX asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A.A.Potebnya, I.I.Sreznevskiy, A.A.Shaxmatov asarlarida asos solingan bo'lsa, barqaror (turg'un) so'z birikmalarini alohida tilshunoslik bo'limi - frazeologiyada o'rganish masalasi 20—40-yillardagi o'quv-metodik adabiyotlarda

¹ Vinogradov V.V., Amosova N.N., Kunin A.V. Russkaya frazeologiya. – Moskva: Nauka, 1977; Osnovy angliyskoy frazeologii. – Leningrad: LGU, 1963; Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar. – Moskva: Russkiy yazyk, 1996.

² Balli Sh. Fransuz stilistikasining asoslari. – Parij, 1932; Stilistikadan ocherklar. – Parij, 1955; Fransuz tili stilistikasi. – Parij, 1921.

³ Kunin A.V., Vinogradov V.V., Shanskiy N.M., Fedulonkova T.N. Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar. – Moskva: Russkiy yazyk, 1996; Russkaya frazeologiya. – Moskva: Nauka, 1977; Frazeologiya sovremennogo russkogo yazyka. – Moskva: Nauka, 1973; Osnovy frazeologii. – Moskva, 2003.

Ye.D.Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulaxovskiy asarlarida ko'rib chiqilgan⁴.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rganilgan. Frazeologiya bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan, yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70—80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to'plamlar chiqaruvchi markaz faoliyat ko'rsatgan⁵.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning lisoniy tabiati, leksik-grammatik xususiyatlari, shuningdek, badiiy asarlarda frazeologizmlar tarjimasi, tillararo tarjima muammolariga bag'ishlangan bir qator ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Sh. Rahmatullaev, Sh.Usmanova, M.Xoliqova, Sh.Abdullayev, A. Isaev, K. Bozorboev, A. Mamatov, B. Yo'ldoshev, U. Rashidova, Sh. G'anieva, Sh. Almamatova, B. Boltaeva kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan bo'lib, ular frazeologizmning ma'lum bir qirralarini yoritishga, o'z tadqiqotlarida o'zbek tilidagi frazeologizmlarning boshqa tillardagi frazeologizmlardan farqlari alohida ko'rsatishga xizmat qilishgan⁶. So'nggi paytlarda o'zbek frazeologiyasi sohasidagi ishlar yanada rivojlantirilib, frazeologik va frazeografik hamda tarjima muammolari o'z yechimini topmoqda. O'zbek tilida frazeologik sinonimlarning struktur-semantik tahlili, badiiy tarjima masalalariga

⁴ Potebnya A.A., Sreznevskiy I.I., Shaxmatov A.A., Polivanov Ye.D., Abakumov S., Bulaxovskiy L.A. Izbrannye trudy. – Kiev: Naukova dumka, 1982; Russkiy yazyik i ego frazeologiya. – Moskva, 1955; Russkiy yazyik: Istoriya i frazeologiya. – Leningrad, 1952; Osnovy russkoy frazeologii. – Moskva: Nauka, 1931; Metodika frazeologii. – Moskva, 1937; Frazeologiya russkogo yazyika. – Moskva: Nauka, 1948.

⁵ Xolikulova A. Sh. Fe'lli frazeologik birliklarning sintaktik-semantik xususiyatlari (Ingliz va o'zbek tillari misolida) // Modern Scientific Research. – 2025. – №05. – B. 105-106

⁶ **Rahmatullaev Sh.** O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 408 b.; **Usmonova Sh.** Lingvokulturologiya. – Toshkent: Universitet, 2018. – 200 b.; Xoliqova M. O'zbek muloqot diskursida frazeologik birliklarning o'rganilishi. – Toshkent: Fan, 2001. – 109 b.; Abdullayev Sh. D. Tarjima asarlarda frazeologizmlar semantikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – 21 b.; Isaev A. O'zbek tilida somatik frazeologizmlar. – Toshkent: Fan, 2005. – 320 b.; Bozorboev K. O'zbek va qoraqalpoq tilshunosligida frazeologizmlarning ilmiy tadqiqi masalasi. – Nukus: Xorazmiy, 1977 - 103 b.; Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1999. – 50 b.; Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand: SamDU nashri, 1999. – 59 b.; Rashidova U. O'zbek muloqot diskursida frazeologik birliklarning o'rganilishi. – Toshkent: Fan, 1971. – 79 b.; G'anieva Sh. O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning struktur tahlili. – Toshkent: Fan, 2019. – 100 b.; Almamatova Sh.T. O'zbek tili frazemalarining komponent tahlili. – Toshkent: Universitet, 2008. – 22 b.

bag'ishlangan anjumanlar, monografiya va o'quv amaliyotlari shular jumlasidandir. O'zbek va rus tillaridagi frazemalarni qiyosiy-amaliy aspektda o'rgangan M.Sodiqova va M.Abdurahimovlar ikki tillik frazeologik lug'atlar yaratib, tarjimonlar uchun amaliy qo'llanma taqdim etishgan⁷. J.Sharipov, G'.Salomovlar o'zbek tilshunosligi uchun g'oyat dolzarb muammolardan biri tarjimashunoslik nazariyasi bilan shug'ullanib, bir necha monografik tadqiqotlar yaratdilar⁸.

Rus olimlari tomonidan tadqiq etilgan ilmiy izlanishlarda arab tilidagi frazeologizmlarning semantik-struktur, leksik-semantik xususiyatlarini ochib berganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbek tilshunoslarining tadqiqotlarida esa frazeologizmlarning emotiv xususiyatlari kengroq yoritilgan bo'lib, bunda frazeologik birikmalarni matn tarkibida ifodalanish jihatidan o'rganilgan. Arab tilida frazeologizmlar haqida dunyo tilshunoslari bir qancha tadqiqotlar olib borishgan. Arab tilshunoslaridan Abu Hilol al-Askariy⁹, Jaloliddin As-Suyuti¹⁰ning asarlarida ko'rish mumkin. Arab tilshunoslari esa o'z ilmiy asarlarida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy hamda leksik-semantik xususiyatlari ochib berishga e'tibor qaratishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov - Tarjima nazariyasi
2. Quadrat Musayev - Tarjima nazariyasi asoslari
3. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent, 2002, – 165 b
4. B.B.Pimuhamedov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: 2021. – 36 b

⁷ Sodiqova M. *Qisqacha o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at*. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1989. – 336 b.; Abdurahimov M. *Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at*. – Toshkent: O'qituvchi, 1972. – 320 b.

⁸ Salomov G'. Badiiy tarjimaning leksik-frazeologik masalalari. – Toshkent: Fan, 1960. – 150 b.; Sharipov J. O'zbekistonda tarjima tarixi. – Toshkent: Fan, 1979. – 132 b.

⁹ أبو هلال العسكري الحسن بن عبد الله. كتاب الصناعتين: الكتابة والشعر. تحقيق: محمود أبو رية وعباس خضر. القاهرة: دار الكتاب العربي، 1958

¹⁰ جلال الدين السيوطي، عبد الرحمن بن أبي بكر. المزهرة في علوم اللغة وأنواعها. جزاءن: بيروت: دار الكتب العلمية، 1950

5. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 408 b
6. Abdurahimov M. Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at. – Toshkent: O'qituvchi, 1972. – 320 b.